

Maydonga



16:00 / 20.02.2022 1915

Va'da kuni choshgohda odamlar to'p-to'p bo'lib uylaridan maydonga chiqishganini ko'rasan. Bolalar, yigitlaru qariyalar, erkagu ayol maydonga qarab yurardilar. Uyda bemorlar va yura olmaydigan ojizlardan boshqa hech kim qolmadi.

Fir'avnning bosh shahri bo'lmish Matariyya faqat sehr va sehrgarlar ismlari haqida gaplashar edi;

- Usvon shahrining eng katta sehrgari ham kelibdimi?
- Ha, yana tag'in Uqsur, va Jiyza shahrining mashhur sehrgarlari ham shu yerda.
- Ey birodar nima deb o'ylaysiz - kim yengar ekan?
- Misrning eng zo'r sehrgarlari yig'ilgan bo'lsa, ularga kim ham bas kela oladi?!
- Muso va uning og'asi sehr qilishni qachon-qaerda o'rganibdiki, bu mashhur sehrgarlardan ustun chiqsa?!
- Muso saroyda katta bo'lgan bir yigit. So'ng Misrdan qo'rqqan holda qochib ketgan edi. U Madyan shahrida bir necha yil bo'lgan. Ikkovi sehrni qaerda o'rgandi ekan!

Misrda sehrgarlikni o'rganmagan edi. Madyanda esa sehrdan ta'lim beradigan fan borligini eshitmaganmiz.

Maydonda Bani Isroil ham umid va noumidlik orasida yuragini hovuchlab turardi. Ularda umidga qaraganda qo'rquv hissi ko'proq edi. Imron o'g'liga Allohning o'zi rahm qilsin!

Bani Isroilga Allohning o'zi madadkor bo'lsin!

Maydonga kibru g'urur bilan sehrgarlar kirib kelishdi.

Turfa liboslarga burkangan bu zotlarning qo'llarida aso va iplar bor edi.

Ular «bu kun bizning sehr kunimiz» deya sho'x-shodon kelar edilar:

- Bugun shoh bizning nimalarga qodir ekanimizni ko'radi.

Odamlarning o'zi bizning afzalligimizga guvoh bo'ladi!

«(Shundan keyin) **sehrgarlar Fir'avn oldiga kelishib: «Agar biz g'olib bo'lsak, albatta** (katta) **mukofot** (berursan)» deyishdi».

«**U: «Ha, (agar g'olib bo'lsangizlar) albatta sizlar mening yaqinlarimdan bo'lursizlar» dedi.**

Shohlar beradigan mukofot mana shunday bo'ladi. Kishilar shu mukofot bilan aldanadi. Botir-pahlavonlar shu mukofot bilan ovlanadi. Sehrgarlar Fir'avnning va'dasini eshitib behad shod bo'ldilar.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad